

**USTOZ-SHOGIRD AN'ANALARI ASOSIDA AMALIY BEZAK SAN'ATI
MASHG'ULOTLARIDA TALABALARING BADIY-IJODIY
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.**

*Kamoliddin Behzod nomli Milliy
rassomlik va Dizayn instituti
Amaliy bezak san'ati kafedrasи
mudiri D.T.Xaytmetov*

Annotatsiya

Mazkur maqola ustoz-shogird an'analari asosida amaliy san'at mashg`ulotlarini o`qitish jarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovaciyalarni qo'llash, zamonaviy yondashuvlarni tatbiq qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, shuningdek amaliy mashg`ulotlarda zamonaviy ta'lim vositalardan foydalanish ko'nikmalari hamda badiiy ta`lim integratsiyasining rivojlanishiga qaratilgan.

Калит сўзлар: ustoz-shogird, an'ana, barkamol inson, didaktik vositalar, innovatsiya, ijodiy faoliyat, badiiy va pedagogik mahorat, amaliy san'at.

Аннотация

Данная статья направлена на развитие современных подходов и инноваций в обучении практическому искусству на основе традиций наставника-ученика, формирование знаний и навыков, необходимых для применения современных подходов, а также навыков использования современных образовательных инструментов в практическом обучении и интеграции художественного образования.

Ключевые слова: наставник-ученик, традиция, гармоничный человек, дидактические средства, новаторство, творческая деятельность, художественно-педагогическое мастерство, прикладное искусство.

Annotation

This article is aimed at developing modern approaches and innovations in teaching practical art based on the traditions of the mentor-student, the formation of knowledge and skills necessary for the application of modern approaches, as well as skills in using modern educational tools in practical training and integration of art education.

Keywords: teacher-student, tradition, harmonious person, didactic means, innovation, creative activity, artistic and pedagogical skills, applied art.

Yurtimiz amaliyotida qo'llanayotgan qomusimizda belgilab berilgan qonunlarimizdan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, har tomonlama kamolga yetgan barkamol insonni tarbiyalash uchun ular ongida ma'naviyat qirralari;

iymon, e'tiqod, mehr, vatanparvarlik, insonga cheksiz muhabbat, do'stlik, muruvvatlilik, qanoatlilik va sabr-toqatlilik, saxiylik, milliy g'urur kabi fazilatlarni shakllantirish zarurdir.¹

Ustoz-shogird an'analari asosida o'zbek xalq amaliy bezak san'ati, milliy va jahon badiiy madaniyatining bir qismi sifatida ko'p asrlik jamoaviy ijodkorlik, ko'p avlodlarning donoligi va iste'dodining boyitilgan tajribasini o'zida mujassam etgan, talabalarning ijodkorligi va ularning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochadi, shuningdek ularning hayotini ma'naviy jihatdan boy va barqaror bo'lishiga xizmat qiladi.

Hozirgi o'sib kelayotgan yoshlar xayotga bo'lgan qiziqishlarini xilma-xil tarzda fikr bildiradilar, bu yoshda kelajakdagi shaxsnинг xususiyatlari shakllana boshlaydi, shuning uchun o'z xalqining an'analariiga doimiy qiziqishni shakllantirish juda muhimdir.

Ustoz-shogird an'analari asosida amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarida talabalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish omillaridan biri bu - ta'limga berish usullarini to'g'ri va samarali tanlash. Ta'limga berish usullarini tanlash va qo'llashda quyidagi didaktik omillarni e'tiborga olish muhim:

-maqsadni belgilash: ta'limga berish maqsadi, pedagogik vazifalar, o'quv faoliyati natijalari;

-o'quv axborot mazmuni xajmi va murakkabligi: maqsad va ushbu o'quv fanini xususiyati, shu tariqa bu fanni shunchalik murakkab deb qabul qilingan;

-ta'limga berish usullarini o'quv axborotini egallashlariga ta'siri nemis faylasufi G.Mayer fikriga muvofiq 72-soatdan o'tganda ma'lumot eshitish orqali qabul qilgandan so'ng tinglovchi xotirasida 10%; ko'rish orqali -20%; ko'rib va eshitish orqali-50%; ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada-70%; ko'rib va eshitish orqali-50%; ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada, amaliy imkoniyatlar qo'llanilganda-90%; axborot qoladi;

-ta'limga berish usullarini o'quv imkoniyatlari: tayyorlarlik darajasi, umumo'quv malakalarni shakllanganligi, faolligi, qiziqishi va yunaltirilganligi, yoshi, ishslash qobiliyati, o'ziga xos imkoniyatlari va qobiliyatlari.

Vaqt sarfi:

-o'quv dasturida yil davomida o'quv faniga, uning alohida mavzulariga ajratilgan vaqt, shunchalik cheklangan bo'lishi mumkinki, bu esa, kun vaqt oladigan usullarni maqsadga muvofiqroq joylarda qo'llash imkonini beradi;

-vaqt u yoki boshqa usulni tayyorlash va amalga oshirishda mehnat sarflanish nuqtai nazaridan muhim omil hisoblanadi.

¹ М.Ҳакимова Касбий педагогика. – Т. ТДИУ, 2012 й.- 21-29 6.

Shu bois, bunday usullarni qo'llashni rejalashtirishda o'zidan ushbu tashkillashtirish yulini amalga oshirishga zarur tayyorgarlikka vaqt va kuch yetarli buladimi? deb so'rash kerak.

Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarida ta'lif berish sharoiti: ba'zi usullarni amalga oshirish uchun alohida sharoitlar talab etiladi: ta'lif berishning zamonaviy texnik vositalari, kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnitli yozuv taxtasi, zamonaviy elektron doskalar, maxsus zamonaviy jihozlangan xona va boshqalar.

Ta'lif oluvchilar soni: agarda u katta bo'lmasa ta'lif berishni faol ta'lif usullarini qo'llab, jadallashtirish mumkin.

Ta'lif beruvchining chuqur bilimdonligi va shaxsiy sifatlari: ma'qul deb topilgan usullarni qo'llashni bilishi va uddalashi, talablarga mos shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi lozim.

Qo'shimcha omillar:

- mavzuni o'rganishni tashkillashtirish yuli: qay tarzda?
- didaktik vositalar: kaysilari?
- faollikni rag'batlangiruvchi usullar: qaysilari?
- nazorat va o'z-uzini nazorat: qaysilari?
- ta'lif berish usullarini tanlash.²

Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarini ustoz-shogird an'analari asosida olib borishda talabalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy ta'lif amaliyotida talabalarни innovatsion faoliyatga tayyorlashdan ko'zlangan asosiy maqsad-ularni yangilikka intiluvchanliklari, amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarida yangilikni mustaqil izlash, yaratish va qo'llash ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol usullardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarini o'tkazish mahoratini takomillashtirishdan iborat. Talabalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat - uzuksiz ravishda yangiliklar bilan ishlashdan iborat bo'lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. Olimlarning fikriga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning belgilari deb e'tirof etish mumkin:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallash;
- pedagogik tadqiqot usullaridan samarali foydalanish malakalarini o'zlashtirish;
- mualliflik yaratish kobiliyatiga ega bo'lish;
- talabalar bilan hamkorlikka erishish;
- ijodkorlar bilan o'zaro fikr almashish;
- yangiliklarni izlab topish, ijodkorlikda o'z mifikabini yaratish.

Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarida innovatsiyalar qancha ko'p bo'lsa, talaba o'zi tashkil etadigan tajriba mohiyatini shunchalik yaxshi tushunadi, shu bilan birga,

² М.Ю.Маҳкамова. "Педагогика" дарслик. -Т.: 86-87 бет.

u o‘z ilmiy-tadqiqot faoliyatining subyekti va tashkilotchisi sitfatida yangilikni yaratish, qo‘llash hamda takomillashtirishda faol ishtirot etadi. Amaliy bezak san’ati mashg‘ulotlarida talabalar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar ta’lim amaliyotidagi o‘zgarishlarni taxlil etishga o‘rgatadi.

Talabalarda yangilikka intiluvchanlik va tinimsiz mustaqil o‘qib-o‘rganishga doimiy zaruriyat sezish psixologiyasini hosil kilish lozim. Xozirgi kunda, o‘qituvchi pedagogik faoliyatini yaigilash va yangiliklarni ta’lim jarayoniga kiritib borish asosiy, kechiktirib bulmaydigan vazifalardan hisoblanadi. Ta’lim sifatini oshirish jamiyatning barcha jabxalarida hayotni yaxshilash va farovon turmush kechirishga olib keladi. Yangilikni kiritish ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi bo‘lganligi uchun ham rivojlangan davlatlar ta’lim jarayonida uzlusiz yangilik kiritishga harakat qiladilar.³

Xulosa qilib aytganda, amaliy bezak san’ati Sharq xalqlarining qadimiy qadriyati bo‘lib, u asrlar davomida xalq madaniyati, o‘y-xayollari, orzu-istikclarini o‘zida ifodalab kelayotgan sanoat hisoblanadi. Uning o‘ziga xos milliylik xususiyatlari, ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari, ustoz-shogird an’alari o‘rtasidagi axloq-odob mezoni, madaniyati, yosh avlodda amaliy bezak san’atiga oid bo‘lgan barcha kasblarga mehr-muhabbatini o‘stirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. М.Ю.Маҳкамова. “Педагогика” дарслик. -Т.: 2022. 288 бет
2. Василькова Ю.В. Лекции по социальной педагогике.: Теория и история. М.: Перспектива, 2010.-736 стр.
4. Turayevich, K. D. (2023). The state of development of artistic and creative abilities of students in the classroom of applied decorative and applied art in modern educational practice. *Genius Repository*, 24, 70-73.
5. Xaytmetov D. [Development of students' art creative talents in applicable decorative classes.](#) – Web of scinttist: international scientific research journal, 2021. – P. 167-171.
6. Turaevich, H. D. (2022). A modern approach to applied art. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 115-120.
7. 5. Turayevich, K. D. (2023). The state of development of artistic and creative abilities of students in the classroom of applied decorative and applied art in modern educational practice. *Genius Repository*, 24, 70-73.
8. 6. Хайтметов, Д. Т. (2023, April). ОРИГИНАЛЬНОСТЬ ФОРМ И УКРАШЕНИЙ, РАЗНООБРАЗИЕ ЦВЕТОВОЙ ГАММЫ В ГЛАЗУРОВАННОЙ КЕРАМИКЕ. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 2, No. 4, pp. 292-296).

³ М.Ю.Маҳкамова. “Педагогика” дарслик. -Т.: 126-127 бет.